

Prezident mahalla hayoti bilan tanishdi



Davlatimiz rahbari Izboskan tumanidagi Organji mahallasida bo'lib, aholi hayoti bilan tanishdi.

Mahallada 3 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi. Bu yil 915 o'rinli umumta'lif maktabi ta'mirdan chiqarildi. Barcha ko'chalar obod bo'lyapti. O'nlab kichik biznes sub'ektlari aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoxda.

Odamlarning o'zi ham hunarmand, mirishkor. Jumladan, dehqonchilik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoshlarga 10 sotixdan yer ajratilyapti. Mahalladagi 150 ta xonadonga 50 boshdan parranda berilib, o'zini o'zi band qilishi ta'minlangan.

Shavkat Mirziyoyev shu yerlik Qurbonali O'rino boyev xonadonida bo'lib, yashash sharoitlari, parrandachiligini ko'zdan kechirdi. Mahalla vakillari bilan dildan suhbat bo'ldi.

- Endi har bir xonadonning imkoniyatidan kelib chiqib, biznes-reja yozib beriladi. Davlat tashkilotlari sharoit yaratadi. Hozirgi zamonga munosib bo'lib, mehnat qilmasak, niyatimizga yetolmaymiz. Xudoning o'zi mehnatga, harakatga yarasha ajrini beradi, - dedi Prezident.

Nuroniyalar yurtimizga tinchlik, xalqimizga farovonlik tilab, duo qildi.







Özbekiston Respublikasi Prezidenti
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
MATBUOT XIZMATI



Özbekiston Respublikasi Prezidenti
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
MATBUOT XIZMATI

Manba